

## 4. AGAR SHIFOKOR "TUBERKULOZ" TASHHISI QO'YGAN BO'LSA, "NEGA?"...

1. Dori-darmonlar bilan davolanishni imkon qadar tezroq boshlash kerak. **NEGA?**

- Tuberkulozni erta bosqichda davolash osonroq kechadi, zero tana hali xavfli infektsiya tomonidan vayron qilinmagan bo'ladi. Erta davolanish bilan og'ir alomatlar hatto paydo bo'lmasligi, yoki shifokorning barcha tavsiyalariga rioya qilingan holda, tezda yo'qolishi mumkin.

2. Tuberkuloz kasalligini davolash uzoq davom etadi. **NEGA?**

- Tuberkuloz mikobakteriyalari organizmda uzoq vaqt yashaydi, tuberkulozga qarshi preparatlar davolashning birinchi haftalarida ularning aksariyatini o'ldiradi, ammo ba'zi bakteriyalar omon qoladi va ko'payishda davom etadi, shuning uchun davolanish kursi tugaguncha dorilarni qabul qilish kerak. (6 oydan 2 yilgacha yoki undan ko'p).

Agar davolanish to'xtatilsa, dori bilan "o'chirilgan" mikobakteriyalar yana rivojlana boshlaydi va hozirda davolanayotgan tuberkulozga qarshi dorilariga turg'unlik paydo bo'lishi mumkin. Shunday qilib, kasallik qiyin davolanuvchi turga - doriga chidamli tuberkulozga (LY-TB) aylanadi.

3. Shifokor kasalxonaga yotqizishni tavsiya qiladi. **NEGA?**

- Intensiv davolashning birinchi bosqichi kasalxonada o'tkazilishidan maqsad, shifokor dori vositalarining samaradorligini kuzatish, bemorning ularni yaxshi qabul qilayotganligini aniqlash, agar kerak bo'lsa, nojo'ya ta'sirlar paydo bo'lganda davolash rejimini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, shifoxonada bemorlar umum quvvatlovchi dorilarni qabul qilishadi.

Bir necha hafta davomida jadal davo kursidan keyin ijobiy dinamikadan so'ng shifokor bemorni ambulator davolanish uchun chiqarishi mumkin.

4. Shifokor tuberkuloz kasalligini xalq tabobati bilan davolash xavfli ekanligini aytadi. **NEGA?**

- Xalq tabobati vositalari tuberkuloz mikobakteriyalarni yo'q qiladigan dorilar emas. Siz faqat shifokor bilan kelishilgan holda tuberkuloz kasalligini dori-darmon bilan davolashdan tashqari, xalq tabobati usullarini ham qabul qilishingiz mumkin.

Agar kasallik allaqachon rivojlangan bo'lsa, tuberkulozni faqat tuberkulozga qarshi dorilar bilan davolash mumkin!

**TUBERKULOZ NAFAQAT O'PKANI,  
BALKI INSON ORGANIZMINING BOSHQA  
A'ZOLARINI HAM ZARARLASHI MUMKIN.  
LEKIN BU - DAVOSI BOR KASALLIK!**

**DAVOLASH KURSI - KAMIDA 6 OY**



**ENG MUHIMI KASALLIKNI ERTA ANIQLASH, DORI-DARMONLAR BILAN DAVOLANISHNI IMKON QADAR ERTA BOSHLAB SOG'AYGUNGA QADAR TO'LIQ DAVOM ETTIRISHDIR.**

Respublika ixtisoslashtirilgan  
ftiziatrya va pulmonologiya ilmiy-amaliy  
tibbiyot markazi:

**Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Majlisi  
ko'chasi, 1-uy**

**Tel. +998 99 353 76 96  
+998 71 278 02 09**

NNT «INTILISH» Respublika axborot-ta'lim  
markazi :

**Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,  
Asaka 1-tor ko'chasi, 10-uy**

**Tel. +998 71 202-15-55**

Ushbu nashr Amerika Qo'shma Shtatlari Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) orqali Amerika xalqining yordami bilan amalga oshirildi. «INTILISH» RATM NNT nashrning mazmuni uchun mas'uldir, bu esa USAID pozitsiyasidan farq qilishi mumkin.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
Respublika Ixtisoslashtirilgan Ftiziatrya  
va pulmonologiya ilmiy-amaliy  
tibbiyot markazi



USAID  
AMERIKA XALQIDAN



**«O'ZBEKISTONDA  
TUBERKULOZNI TUGATISH»  
LOYIHASI**



**TUBERKULOZDAN  
DAVOLANISHGA  
SODIQLIK**

**Bemorlar va ularning  
yaqinlari uchun ma'lumot**

**2023**

## TUBERKULYOZNING DAVOSI BOR!

**Tuberkulyoz** - mikobakteriyalar keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik bo'lib, inson tanasining barcha a'zolarini zararlashi mumkin. Aksariyat hollarda kasallik o'pkani zararlaydi.

Tuberkulyoz kasalligi o'pka tuberkulyozi bilan og'rigan odamdan yo'talganda, aksirganda va gaplashganda havo tomchi yo'li orqali yuqadi. Deyarli har bir insonda tuberkulyoz infeksiyasini yuqtirib olishi va kasallanishi ehtimoli bor.

**Tuberkulyoz davosi bor kasallikdir.** Kasallik shifokor tomonidan belgilangan tibbiy muolajalar va davolanish tartibiga qat'iy rioya qilish bilan samarali davolanadi.

**Insonning asosiy qadr-qimmatini – uning salomatligini! Tuberkulyoz kasalligidan davolanishni keyinroqqa qoldirish va davolash kursini ruxsatsiz to'xtatish - bularning barchasi kasallikning qiyin davolanuvchi shakllari rivojlanishiga olib kelishi mumkin, ularni davolash ko'proq vaqt va mablag' talab qiladi va og'ir kasallikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, ular og'ir asoratlar va nogironlikka olib kelishi mumkin.**

Tuberkulyozning yuqumli shakli bilan og'rigan bemor kasallikni o'z yaqinlariga ham yuqtirishi mumkin. Davolanishni o'z vaqtida boshlab, dorilarni muntazam ravishda qabul qilayotgan bemor tez orada boshqalar uchun yuqumli bo'lmaydi. **Yaqinlaringizni himoya qiling va darhol davolanishni boshlang!**

## TUBERKULYOZDAN QANDAY DAVOLANISH MUMKIN?

Tuberkulyozni davolash kursiga sodiqlik – muvaffaqiyatli sog'ayishning kaliti! Ushbu tushunchaga nimalar kiradi?

- ftziatr tomonidan belgilangan tuberkulyozga qarshi barcha dorilarni har kuni, imkon qadar kunning aynan bir vaqtida qabul qilish **davolash kursi tugagunga qadar.**



- tibbiyot xodimlari bilan hamkorlik.

O'zingizni qanday xis qilayotganingiz, dori vositalariga yuzaga keladigan salbiy reaksiyalar haqida shifokorga xabar berish kerak – bu muammolarning aksariyati o'tib ketuvchi bo'lib, ular davolanish rejimini o'zgartirish yoki holatni yaxshilaydigan dori-darmonlarni buyurish orqali hal qilinadi.

- qo'yilgan tashxisni qabul qilish va tuberkulyoz kasalligini davolash zarurati, shuningdek, o'z salomatligi uchun mas'uliyatli bo'lish.

Davolanish boshlanganidan bir necha hafta o'tgach tuberkulyoz kasalligining ba'zi belgilari yo'qolishi va bemor o'zini yaxshi his qilishi mumkin. Lekin bu holat dorilarni to'xtatishga sabab bo'la olmaydi, chunki tuberkulyoz bakteriyalari organizmda rivojlanishda davom etadi va davolanish ruxsatsiz to'xtatilgan hollarda kasallik yanada xavfli, qiyin davolanuvchi, dorilarga turg'un shakliga aylanishi mumkin. **Bemorning sog'ayganligini faqat shifokor aniqlaydi.**

## TUBERKULYOZGA CHALINGAN BEMORNING YAQINLARI VA QARINDOSHLARI UCHUN MA'LUMOT

- Agar bemor uy sharoitida davolanadigan bo'lsa, tuberkulyozga qarshi dorilarni qabul qilishning to'g'ri rejimini tashkil etishga yordam berish; davolash rejimiga rioya qilish.

- Ushbu kasallik haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish va yuzaga keladigan qiyinchiliklarni muhokama qilish, agar iloji bo'lsa – ularni yengishga yordam berish.

- Qiyin daqiqalarda bemor yonida bo'lish, to'g'ri qaror qabul qilishga yordam berish – davo kursi to'liq tugaguniga qadar davolanishni davom ettirish.

- Tuberkulyozni davolash uchun xalq tabobati vositalariga bo'lgan ishtiyoqni rag'batlantirmaslik, ular faqat tuberkulyozga qarshi davolash kursiga **yordamchi**, qo'shimcha sifatida qo'llanilishi mumkin.

- Yaqin insoniga davolanishni u tugaguniga qadar davom ettirish uchun motivatsiya topishda yordam berish, bu motivatsiyani saqlab qolish.

- Davolashga rioya qilishni rag'batlantirish, yaqin insoniga ma'naviy yordam ko'rsatish, kasallikka qarshi kurashda taslim bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ijobiy munosabatni saqlash. **Stressli vaziyatlar davolanishga salbiy ta'sir qiladi.**

- Agar kerak bo'lsa, tuberkulyoz kasalligini davolashda **psixo-ijtimoiy yordam ko'rsatadigan xizmat mutaxassislari yoki ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkilotlariga** psixolog, ijtimoiy ishchi yordami, shuningdek, axborot va ijtimoiy yordam olish uchun murojaat qilish mumkin.

**Agar odam uzoq vaqt uxlash bilan optimal ish va dam olish rejimiga rioya qilsa, shuningdek, oqsilli ovqatlar ustunligi bilan to'liq muvozanatli ovqatlanishni qo'llasa, sog'ayishga tezroq erishiladi.**

